
JURNALISTLAR "HUNARMANDLAR MARKAZI"DA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR BILAN TANISHISHDI

Bugun 2022 yil 5 avgust kuni AOKA direktori va viloyat hokimi tomonidan tasdiqlangan rejaga muvofiq Rishton tumanida navbatdagi Press-tur o'tkazildi.

Mazkur tadbirda tumanda faoliyat yuritayotgan jurnalistlar, ijtimoiy tarmoq faollari ishtirok etdilar.

Press-tur qatnashchilari dastlab "Qalaynav" MFY hududida bunyod etilayotgan "Hunarmandlar markazi"dagi qurilish ishlari jarayoni bilan tanishdilar. 0,8 gektar maydonni egallagan 2 qavatli "Hunarmandlar markazi"ning loyiha qiymati 2,4 mlrd so'mni tashkil etadi. 16 nafar hunarmand xonadonini ish bilan ta'minlay oladigan markaz loyihasi uchun "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan imtiyozli kredit ajratilgan.

Bugungi kunda majmuada qurilish ishlari poyoniga yetay deb turibdi. Majmua Mustaqillik bayrami arafasida foydalanishga topshiriladi.-Prezidentimiz tomonidan hunarmandlarga katta e'tibor berilmoqda. - dedi tuman hokimining o'rinbosari Nozimxo'ja Oripov. - Ushbu majmuaning foydalanishga topshirilishi Rishton hunarmandchiligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Majmua ish boshqaruvchisi Dilshodjon Mastonovning ta'kidlashicha, "Alfa-invest", "Rishton binokor", "Nurafshon" kabi MChJlar quruvchilari ob'ektni tez va soz qurib bitkazish va foydalanishga topshirish uchun astoydil harakat qilishmoqda.

Press-tur ishtirokchilarining ikkinchi manzili "Oq yer" MFY hududida joylashgan "Chinor-2020 plyus" MChJ tomonidan qurilayotgan "Hunarmandlar markazi" bo'ldi. Ushbu majmuaning loyiha qiymati 10 mlrd so'mni tashkil etadi. Majmua Rishton tumani turistik salohiyatining yanada rivojlanishiga hissa bo'lib qo'shiladi. Yirik inshoot ikki qavatli bo'lib, 1-qavati hovlisida 15 nafar hunarmand oilasi ishlashi uchun uy-joy va do'konlar tashkil qilinyapti.

Hunarmandlar o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarini shu yerda joylashgan ko'rgazmalar zaliga qo'yishi, sotishi va buyurtma olishi mumkin. Binoning 2-qavati foydalanishga topshirilgach bu yerda 500 nafar yoshlar kulolchilik mahsulotlariga bezak berish ishlarini amalga oshiradilar.

2022-08-05 14:27:40